

PAPER

AGATA KRISTINING “THE ADVENTURE OF “THE WESTERN STAR” HIKOYASIDA DETEKTIV JANRI XUSUSIYATLARI

Kurbonova Nodira Rozikovna¹, * and Burxonjonova Aziza Fazliddinovna²

¹PhD BuxDU, Chet tillar fakulteti Ingliz adabiyoti va tarjimashunoslik kafedrası dotsenti, O‘zbekiston

² Buxoro davlat universiteti ingliz tili fakulteti magistranti Adabiyot va tarjimashunoslik, Chet tillar fakulteti, O‘zbekiston.

* kurbonova321@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Agata Kristining “The Adventure of the Western Star” hikoyasida detektiv janrining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Hikoya tuzilishi, xarakterlar tasviri va syujet rivojlanishi tahlil qilinib, klassik detektiv an‘analardan, jumladan, markaziy sir-asrorlar, chalg‘ituvchi elementlar (red herrings) va detektivning deduktiv fikrlash usullaridan qanday foydalanilgani ko‘rsatildi. Detektiv va boshqa xarakterlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, suhbatlar va ijtimoiy kontekstning tergov jarayonini rivojlantirishdagi roli ham tahlil qilindi. Shuningdek, hikoyaning an‘anaviy detektiv ramkaga mos kelishi va undan chekinishlari, Kristining janrga qo‘shgan o‘ziga xos hissassi ochib berildi. Ushbu tahlil orqali Kristining detektiv janrining o‘ziga xos xususiyatlari chuqurroq tushuntirilgan.

Key words:

Agata Kristi, detektiv adabiyoti, qisqa hikoya, sir, hikoya tuzilishi, deduktiv fikrlash.

Kirish

Detektiv janri adabiyot tarixida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, o‘quvchida sir va qiziqish uyg‘otish orqali voqealarning rivojlanishini kuzatishga imkon yaratadi. Ushbu maqolada Agata Kristining “The Adventure of the Western Star” hikoyasida

detektiv janrining xususiyatlari tahlil qilingan. Hikoya tuzilishi, xarakterlarning shakllanishi va syujet rivojlanishi asosiy o‘rinda ko‘rilgan bo‘lib, Kristining klassik detektiv an‘analardan foydalanilgan.

Shuningdek, maqolada detektiv va boshqa

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

xarakterlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, suhbatlar va ijtimoiy kontekstning tergov jarayoniga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Hikoyaning an'anaviy detektiv ramkaga qanchalik mos kelishi yoki undan chekinishlari tahlil qilingan, bu esa Agata Kristining janrga qo'shgan o'ziga xos hissa va ijodiy yondashuvini ochib bergan. Agata Kristi o'z qisqa hikoyalarida detektiv janrining asosiy elementlarini saqlab qolgan holda, o'ziga xos ijodiy uslub va badiiy yondashuvni namoyon qilgan.

Hikoyaning til va uslub xususiyatlariga ham e'tibor qaratilgan. Hikoyada ishlatilgan til, dialoglar, xarakterlar orasidagi o'zaro muloqot va syujetning bosqichma-bosqich rivojlanishi detektiv janrining asosiy qoidalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, maqola detektiv janrining o'quvchiga ta'sir qiluvchi jihatlari, sirni ochish va voqealarni yechish jarayonidagi psixologik ta'siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot detektiv janrining qisqa hikoya shaklidagi xususiyatlarini, Kristining ijodiy yondashuvini va janrning o'quvchi e'tiborini jalb qilishdagi samaradorligini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Agata Kristining detektiv janridagi ijodiy yondashuvini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. E. Bargainnier Agata Kristining detektiv hikoyalari "Oltin davr" klassik janriga mansubligini ta'kidlagan va ularning 1920–1976 yillar oralig'ida yaratilganligini qayd etgan. Shuningdek, P. Maida va B. Spornick faqat Kristining detektiv asarlariga e'tibor qaratgan, chunki bu janr muallifaning eng muhim hissa qo'shgan.

Kristining asarlaridagi ijtimoiy va madaniy kontekstga urg'u berilgan tadqiqotlar ham mavjud. J. Bernthal Kristining Ikkinchi Jahon urushi davrida yaratilgan detektiv hikoyalari orqali ayol obrazini qanday ifodalaganini va janr ichidagi identitet konstruktsiyasini tahlil qilgan. Shu bilan birga, N. Bishop Kristining detektiv hikoyalarida ahamiyatsiz odamlar ("nobodies") obrazining janr rivojiga ta'sirini o'rganib, ijtimoiy qatlam va xarakterlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilgan.

Janr xususiyatlari va uning an'analari bilan bog'liq tadqiqotlarda J. Delamater va R. Prigozy klassik detektiv janrining nazariy va amaliy

jihatlarini ko'rib chiqqan, Ch. Wu esa Agata Kristining ijodi va Britaniya "Oltin davr" detektiv janriga qo'shgan hissasini yoritgan. F. Ramazan esa Agata Kristining "cosy mystery" (mantiqiy sirni yechish) haqidagi detektiv hikoyalarini tahlil qilib, voqea rivoji va sirning yechilishini asosiy markaz sifatida ko'rsatgan. Shuningdek, M. Akersshok va L. Koetzee Agata Kristining ijodi kontekstida ayol yozuvchilar va zamonaviy janr tendensiyalarini o'rganib, detektiv janrining ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga qanday moslashganligini tahlil qilgan. Adabiyotlarda keltirilishicha, A. Kristining detektiv hikoyalari klassik "Oltin davr" an'analari asosida shakllangan bo'lsa-da, muallif ijodiy yondashuv orqali janrni boyitgan va o'ziga xos badiiy uslubni rivojlantirgan.

Agata Kristining "The Adventure of the western star" hikoyasida detektiv janrining an'anaviy xususiyatlari keng qo'llanilgan. Agata Kristining "The Adventure of the Western Star" hikoyasi detektiv janri doirasida yaratilgan klassik struktura asosida qurilgan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab kelinadi. "Oltin davr" xos bo'lgan "murakkab jumboq + deduksiya" modeli bu hikoyada to'liq qo'llanilgan ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Hikoyada markaziy sir muammo sifatida joylashtirilgan va voqealar rivoji shu sirni ochishga qaratilgan. Detektiv janrining asosiy elementi bo'lgan chalg'ituvchi elementlar, ya'ni, bu matn, nutq yoki tadqiqot jarayonida asosiy mazmun yoki mantiqiy yechimdan e'tiborni boshqa tomonga burib yuboradigan, ammo asl mavzuga bevosita aloqador bo'lmagan ma'lumotlar, faktlar yoki ishoralar hikoyada muhim rol o'ynashi qayd etilgan, bu esa o'quvchida taxmin qilish va sirni topish jarayonini kuchaytiradi. Shuningdek, detektivning dedektiv fikrlash usullari orqali faktlar tahlil qilinadi va voqealar zanjiri tizimli ravishda ochib beriladi.

Hikoyada detektiv va boshqa xarakterlar o'rtasidagi muloqotlar, dialoglar va ijtimoiy kontekst tergov jarayonining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Detektiv boshqa xarakterlar bilan so'zlashuv orqali voqea tafsilotlarini aniqlash, gumonlilarni ajratish va sirni ochish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, hikoyada A. Kristining o'ziga xos uslubi ko'zga tashlanadi: u klassik detektiv qoidalariga

rioya qilgan holda, ayrim jihatlarda ular bilan chekinadi, bu esa janrga yangicha badiiy ohang beradi: “And you will leave it with me, n’est-ce pas? You will be advised by Papa Poirot?” (5b.).

Hikoyada syujet rivoji qat’iy tartib bilan qurilgan, voqealar bir-biriga bog’langan va sirni ochish jarayoni o’quvchini qiziqtiruvchi tarzda boshqarilgan. Xarakterlar tasvirida esa ularning ijtimoiy mavqei, shaxsiy xususiyatlari va motivatsiyasi aniqlik bilan ko’rsatilgan, bu esa detektivning deduktiv jarayonini yanada mantiqiy qiladi.

Hikoyada Erkyul Puaro tomonidan olib borilgan tahliliy jarayon klassik detektivning markaziy funksiyasi sifatida namoyon bo’ladi. Bernthal Agata Kristi asarlarida detektiv obrazning “ijtimoiy kuzatuvchi” sifatida faol ishlatilishini qayd etgan. Puaro ham aynan shunday tasvirlangan: voqealar oqimida u birgalikda suhbatlashish, nozik ishoralarni sezish va mantiqiy bog’lanishlarni tiklash orqali sirni ochadi. “I demand, Madame, that you permit me to use my little gray cells”, ya’ni “Xonim, sizdan meni mana shu kichik miya hujayralarimdan foydalanishimga ruxsat berishingizni so’rayman” (17b.).

Bu ibora Puaroning detektivlik jarayonida asosiy vosita aqliy deduksiya ekanini ko’rsatadi. F. Ramazan ta’kidlaganidek, klassik detektiv hikoyalarda jinoyatni ochish vositasi sifatida “aqliy mushohada” markaziy o’rin egallaydi. Agata Kristi ham aynan shu an’anani davom ettirgan.

Detektiv janrining eng muhim unsurlaridan biri chalg’ituvchi izlar hikoyada juda faol qo’llanadi. N Bishop o’z tadqiqotida Kristi asarlarida “hech kim e’tibor bermaydigan detallar” orqali o’quvchini adashtirish mahoratini tahlil qilgan. “The Adventure of the Western Star” da ham bir nechta bunday elementlar mavjud. Masalan, lordi va ledining o’zaro shubhali munosabati o’quvchining e’tiborini haqiqiy sababdan chetga buradi. “There is something between them something that is not said” ya’ni “Ularning orasida nimadir bor -aytilmagan, yashirin bir narsa” (23b.). Bu gap o’quvchini munosabatlar ichidan sir qidirishga yo’naltiradi, ammo keyinchalik bu iz haqiqiy yechimga olib kelmasligi ma’lum bo’ladi. Adabiyotshunoslar bu uslubni Kristining “mohir manipulyatsiyasi” sifatida ta’riflaydi. “Poirot, with

an air of great satisfaction, tapped the table gently. ‘It is always the simple that eludes us,’ he said. ‘We look for the complicated when the truth is often plain.’” ya’ni “Puaro katta mamnuniyat bilan stolni sekingina urdi. ‘har doim oddiy narsalar bizni chalg’itadi’” (51b.) (muallif tarjimai).

Bu parcha orqali shuni tushunishimiz munkinki, Agata Kristi ushbu hikoyada Puaroni qanchalik fikrlash uslubi noodatiyligini va asarda chalg’ituvchi belgilar qanchalik ko’p bo’lishiga qaramasdan muallif detektivni oddiylikka e’tibor berishga chaqiradi. Asarda muallif bir necha voqealar orqali red herrings (chalg’ituvchi dalillarni) ko’rsatadi. Miss Robinsonning eri yoqut haqida gap ketganda hayajonlanib ketadi, gapdan qochadi, xonani tark etishga urinadi. Uning g’alati harakati uni tashqi dushmanlardan qo’rqayotgan inson sifatida ko’rsatadi - o’quvchi uni faqat xavotirli turmush o’rtoq deb o’ylaydi. Kristi bu yerda qahramonning chalg’ituvchi psixologik xarakterining portretini beradi. Erkakning asabiyligi o’quvchiga uning “nimadandir qo’rqayotgani”ni ko’rsatadi, ammo nimadan - bu noaniq.

Ushbu parchalar orqali Agata Kristi red herring, psixologik chalg’itish, va afsonaviy fon orqali aslida juda sodda va firibgarlikka asoslangan voqeani murakkab sarguzashtga aylantiradi. Asarning badiiy kuchi o’quvchini noaniqliklar ichiga olib kirishda va e’tiborni to’g’ri yo’ldan chalg’itishda namoyon bo’ladi.

“Miss Robinson tells, “You don’t understand, Monsieur Poirot! The diamond is cursed. These people-they will do anything to get it back. I feel watched every moment!” She clutches the jewel tightly, as though it were the only thing holding her together” (66b.). Ya’ni, Miss Robinson Puaroga murojaat qilib deydi: “Siz tushunmaysiz, janob Puaro! Bu yoqut la’natlangan. Uni qaytarib olish uchun ular hech narsadan qaytmaydi. Men har daqiqada kimdir meni xuddi kuzatayotgandek his qilaman.” U yoqutni qo’liga mahkam qisib oladi, go’yo butun hayoti shu toshga bog’langandek. Agata Kristi Miss Robinsonning “la’natlangan”, “har daqiqada kuzatilaman” kabi dramatik so’zlarini ataylab bo’rttiradi. Chunki, bu uning aktrisa ekanligiga ishora. Yozuvchi o’quvchini uning qo’rquviga ishontirib, yolg’on emotsiya

orqali haqiqiy fitnadan chalg'itadi.

Xulosa

Shunday qilib, tahlil natijasida hikoyada detektiv janrining barcha asosiy xususiyatlari markaziy sir, chalg'ituvchi elementlar, deduktiv fikrlash va dialog orqali tergov jarayoni samarali qo'llanganligi aniqlangan. Shu bilan birga, Kristining o'ziga xos ijodiy yondashuvi hikoyani an'anaviy detektivdan ajratib turadigan asosiy jihat sifatida e'tirof etilgan. Bu esa detektiv janrining o'ziga xos badiiy xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ackershoek, Mary Anne. "The Daughters of His Manhood: Christie and the Golden Age of Detective Fiction." *Contributions to the Study of Popular Culture*, vol. 62, 1997, pp. 119–128.
2. Bargainnier, Earl F. *The Gentle Art of Murder: The Detective Fiction of Agatha Christie*. Popular Press, 1980.
3. Bernthal, J. C. "'If Not Yourself, Who Would You Be?': Writing the Female Body in Agatha Christie's Second World War Detective Fiction." *Women: A Cultural Review*, vol. 26, no. 1–2, 2015, pp. 40–56.
4. Bishop, N. J. "Mundane or Menacing? 'Nobodies' in the Detective Fiction of Agatha Christie." *Clues: A Journal of Detection*, vol. 34, no. 1, 2016.
5. Coetzee, Liesel. *Detecting Dominant Discourses in Selected Detective Fiction by Enid Blyton and Agatha Christie*. University of Pretoria, 2010.
6. Delamater, Jerome H., and Ruth Prigozy. *Theory and Practice of Classic Detective Fiction*. Bloomsbury Publishing USA, 1997.
7. Maida, Patricia D., and Nicholas B. Spornick. *Murder She Wrote: A Study of Agatha Christie's Detective Fiction*. Popular Press, 1982.
8. Ramazan, Farman J. "The Golden Age of Detective Fiction: Genre Conventions of Agatha Christie's *Cosy Mysteries*." *Scientific Journal of Polonia University*, vol. 49, no. 6, 2022, pp. 17–21.
9. Wu, Chia-ying. *The Importance of Being Cosy: Agatha Christie and Golden Age British Detective Fiction*. State University of New York at Buffalo, 2007.
10. Nodira, Roziqovna Q. "'Peculiarities of Domestic Fantasy in English Literature'". *American Journal of Education and Evaluation Studies*, vol.1, no.9, 2024.
11. Nodira, Roziqovna Q. "'The Formation of Domestic Fantasy Discourse in Children's Literature'". *International Conference on Linguistics, Literature and Translation*, 2024.